

## O'QUVCHILAR SHAXSINING SHAKLLANISHIDA GENDER XUSUSIYATLARNING O'RNI

Shoimova Aziza Saydullayevna Termiz davlat pedagogika instituti  
"Psixologiya" kafedrası, pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistri  
azizashoimova5@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv jarayonida o'quvchining gender farqlari va o'ziga xosligini ta'minlash choralar, Shuningdek, darsdan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida shakllantiriladigan umummehnat ko'nikmalarini tabaqalashtirgan holda bosqichma-bosqich izchil rivojlantirib borishi zarurligi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirishda, ularning jinsiy, ruhiy, fiziologik xususiyatlari haqida fikr mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, gender farqlar, boshlang'ich ta'lim, gender xususiyatlar, ruhiy xolatlar, o'g'il bolalar, qiz bolalar, identifikatsiya, individuallik, tabaqalashtirish, jins tafovuti.

Bugungi kunda yoshlar dunyoqarashi, tafakkurining jadal rivojlanishi uchun axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demokratik jamiyat qurilayotgan ayni sharoitda axborot vositalari orqali olinadigan ma'lumotlarning sifati shaxsni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ruhiy jihatdan o'g'il va qiz bolalar orasidagi farq keskin yo'qolib bormoqda. O'g'il bolalar va qizlar orasidagi farq yaqqol namoyon bo'lishi uchun ta'lim jarayonida gender muammolarining yechimiga alohida ahamiyat berish lozim.

Maktab bolaning jamiyat bilan munosabatlarini tiklaydigan, uning o'zligini tushunib yetishiga yordam beradigan asosiy ijtimoiy muhit hisoblanadi. Bu yerda bolaning dunyoqarashi kengayadi va gender haqidagi tushunchaga ega bo'ladi.

O'quvchilar 1-sinfga qabul qilingan paytlaridayoq o'g'il va qiz bolalarning har birida ularning jinsiga xos bo'lgan gender xususiyatlar namoyon bo'la boshlaydi. Ta'lim oldida turgan muhim masalalardan biri ularning har biriga xos bo'lgan gender xususiyatlarni rivojlantirish va barqarorlashtirishga ko'maklashishdan iboratdir. Bunga ta'limi va tarbiya yordamida erishish, ayniqsa, samaralidir.

Ta'lim jarayonida gender farqlar rivojlanmay qolishining asosiy sabablaridan biri o'qituvchilarning har ikkala jinsga mansub o'quvchilarga birday yumshoq, tinch, bo'ysunuvchan bo'lishni shart qilib qo'yishi, ulardan tartibni buzmay, ortiqcha harakat qilmay, ko'zga ko'rinmay yurishni talab qilishidir. O'g'il bolaga nisbatan ko'rilgan bunday keskin choralar: yomon baho qo'yish, konspekt daftariga yozish, ota-onasini maktabga chaqirish kabilar undagi jinsga xos identifikatsion belgilarning asta-sekin yo'qolib borishiga sabab bo'ladi. Biroq o'qituvchilar bugungi kunda ta'limning asosiy vazifasi har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni yetishtirishdan iborat ekanligini unutmasliklari kerak. Har bir

bolani shakllantirishda uning gender xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu sohada kutilgan natijalarga erishish uchun o'g'il va qiz bolalarni alohida-alohida o'qitish shart emas, balki ularning har biriga individual yondashuvni yo'lga qo'yish lozim.

O'quv jarayonida o'quvchining gender farqlari va o'ziga xosligini ta'minlash uchun, avvalo, har bir bolaning individualligini e'tiborga olish va hurmat qilish zarur. Shundagina har bir jinsga mansub o'quvchining mantiqiy fikrlashi, o'zligi, intellektual taraqqiyotini ta'minlash mumkin. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarni oliy o'quv yurtlaridayoq o'quvchilardagi gender farqlar va o'ziga xosliklarni hisobga olishga o'rgatib borish lozim. Shunga ko'ra oliy o'quv yurtlarida "O'quvchilarning gender farqlari va o'ziga xosligini ta'minlash" maxsus kursini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Mazkur kurs doirasida bo'lajak o'qituvchilarga gender pedagogikasi, gender psixologiyasi, gender sotsiologiyasi, gender farqlar asosida o'quvchini ijtimoiylashtirish haqida batafsil ma'lumot berish davr talabidir.

Maktab hududida o'quvchilarning gender farqlarini hisobga olgan holda alohida-alohida jismoniy, ruhiy jihatdan dam oladigan maxsus joylar, raqs maydonchalari, estafeta o'yinlari, tanlovlar, musobaqalar, shuningdek, o'g'il va qiz bolalar birga bajaradigan sahna ko'rinishlari, uy-ro'zg'or darslarini tashkil etish zarur. Bularning barchasi o'quvchilardagi gender farqlarni samarali rivojlantirish hamda gender o'xshashliklarni mukammallashtirishga yordam beradi.

Gender farqlarni inobatga olish o'quvchilarning fiziologik jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishlariga ham zamin yaratadi. Har bir kishining turganda, o'tirganda, yurganda va ishlaganda namoyon bo'ladigan o'ziga xos qomati bo'ladi. Tik qomat asosan mushaklarning statistik kuchlanishi oqibatida vujudga keladi va qulay mehnat sharoitida saqlanadi. Tik qomatli o'quvchilarning umurtqa pog'onalari, yelkalar, oyoqlari tekis, kelishgan bo'ladi. Aqliy va jismoniy mehnat jarayonida bolalarning gavda tuzilishi, qomatini muhofaza qilish nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, qizlarning suyaklari nihoyatda nozik va egiluvchan bo'ladi. Darslarda ularning qomati tik turishi, boshi sal orqaga tashlangan bo'lishi nihoyatda zarur. Shundagina ularning ko'krak qafaslari yanada chiroyli shakllanadi. Bunday o'quvchilarning mushaklari tarang, harakatlari o'zaro mutanosib va aniq ifodalanadi.

Qiz va o'g'il bolalardagi to'g'ri tik qomat harakat organlari va ichki organlarning to'g'ri rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, oqibatda mehnat qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Darslarda noto'g'ri o'tirish, harakatlanish natijasida o'quvchilarda ko'krak qafasi ichkariga kirib ketgan, bosh va yelkalar oldinga egilgan, qorin bo'rtib chiqqan, oyoq tizzalarining paylari ham egilgan hollar kuzatilmoqda. Qomatning noto'g'ri shakllanishi asosan skolioz kasalligini keltirib chiqaradi. Skolioz hollarida yelkalar, kuraklar assimetrik holda bo'ladi. Bu ko'pincha darslarida bemalol, erkin to'g'ri o'tirish qoidalariga rioya qilmay harakatlanish natijasida sodir bo'ladi. Noto'g'ri o'tirish va harakatlanish yurak, nafas olish, oshqozon-ichak yo'llarining meyorida ishlashiga xalaqit beradi. Bu holda nafas

olish yo'llari qisqaradi, moddalar almashinuvi pastlashadi, bosh og'rig'i, tez charchash hollari paydo bo'ladi. Bolaning qomati asosan 6-7 yoshlarda shakllana boshlashini o'qituvchilar yaxshi bilishlari kerak va darsni tashkil etish jarayonida o'g'il va qiz bolalarning partada to'g'ri o'tirishlarini nazorat qilib borishlari lozim.

Bolalarda chiroyli, tik qomatning shakllanishi mushaklarning yaxshi rivojlanishiga bog'liq bo'lib, ular jismoniy mehnat harakatlari davomida sezilarli darajada jadallashadi. Mehnat darslarida mushaklarning kuchlanishi natijasida ham o'quvchilarda to'g'ri tik qomatni shakllantirish mumkin. Bunda o'g'il va qiz bolalarning har biriga ularning kuchiga qarab mushaklarni harakatlantiruvchi topshiriqlar berish talab etiladi. O'quvchilarda to'g'ri tik qomatni shakllantirish boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, jismoniy mehnat va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari alohida ahamiyatga ega. Bu o'rinda mushaklarning to'g'ri rivojlanishi uchun mehnat mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar qomatining noto'g'ri shakllanishi quyidagilar tufayli vujudga keladi:

- o'quvchilarning mehnat va jismoniy tarbiya darslarida belgilangan muddat davomida tik tura olmasliklari;
- o'tirgan holatda gavdalarini to'g'ri tutmasliklari;
- tez charchash oqibatida tana holatlarini noto'g'ri shaklga o'zgartirishlari kabilar.

Bu, avvalo, qomatning noto'g'ri shakllanishi, orqa mushaklarning holsizlanishi va umurtqa pog'onalarining egri o'sishiga olib keladi.

Shuning uchun ham jismoniy mehnat mashqlari, harakatli o'yinlar, sayrlar, to'g'ri tanlangan mebel jihozlari o'quvchilar qomatining to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashadi. Mehnat darslari davomida bolalarga, ayniqsa, qizlarga og'ir buyumlarni ko'tartirmaslik kerak. Maktab sumkasida barcha kitoblarni baravar ko'tarib yurish ham ular umurtqa pog'onasining egri o'sishiga olib keladi. Ayniqsa, qizlarning umurtqa suyaklari egiluvchan va mo'rt bo'ladi.

O'quvchi harakatlarining rivojlanishida jismoniy mehnat darslari katta ahamiyatga ega. Mehnat mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar mushaklarining asab tizimi faoliyati orqali qon aylanishi yaxshilanadi.

Ularning jismidagi mushak to'qimalari jadal o'sa boshlaydi hamda muskullar soni ortadi.

Tabaqalashtirilgan mehnat topshiriqlari yordamida o'g'il va qiz bolalarda harakat faolligini oshirish suyak tizimining o'zgarishi va bo'y o'sishida katta yordam beradi. Tabaqalashtirilgan mehnat mashg'ulotlari yordamida, ayniqsa, o'g'il bolalarda suyaklar yuk ko'tarishga va lat yeyishga o'ta chidamlilik hosil qiladi. Yoshi va jinsiga ko'ra farqli tarzda tashkillashtirilgan jismoniy mehnat mashg'ulotlari o'quvchilar qomatining noto'g'ri rivojlanishining oldini oladi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga ko'p va chaqqon harakat qiladigan topshiriqlar berish kerak. Agar o'quvchilar o'z mehnat darajasidan kelib chiqqan

holda kam harakatlanuvchan bo'lsa, jismoniy mehnat bilan kam shug'ullansa, mushaklar faoliyatining qisqarishi yuzaga kelishi muqarrar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida shakllantiriladigan umummehnat ko'nikmalari ularning ijodkorlik, loyihalash, konstruksiyalash, faraz qilish, nafosatga intilish, orastalik, tikish, bichish, bezash kabi ko'nikmalarini tabaqalashtirgan holda bosqichma-bosqich izchil rivojlantirib borishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirishda, ularning jinsiy, ruhiy, fiziologik xususiyatlarini hisobga olish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

**Xulosa sifatida** shuni takidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida tanlangan tabaqalashgan va integral harakterdagi ta'limiy topshiriqlar muayyan izchillikdagi didaktik tizimni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gender tenglik va farqlarni hisobga olgan holda taqdim etiladigan ta'limiy topshiriqlar o'g'il va qiz bolalar orasida hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro yordam muhitini vujudga keltirishiga erishish talab etiladi. Shuningdek, gender tenglik va farqlar asosida ta'limiy topshiriqlarni bajarishga o'rgatish natijasida ularning ruhiy imkoniyatlari kengayadi. O'zlari bajaradigan mehnat turiga nisbatan zavq-shavq, qiziqish, o'g'il va qiz bolalar orasida do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro ishonch va birdamlik qaror topadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>
2. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>
3. Норбошева М.А. Игра в жизни человека и развитии ребенка // Психология № 2, 2014 с. 72-78
4. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>
5. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>
6. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал

- Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
7. Норбошева, М. А. (2021). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2021.26. 88.050 Норбошева Мехри Ачиловна ТерДУ Педагогика институти Психология кафедраси мудири Психология фанлари номзоди, доцент. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1-Махсус сон), 165-169.
8. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. *Наука и образование сегодня*, (7 (66)), 66-67.
9. Narbasheva, M. A. (2021). FOLK GAMES SERVES AS A PSYCHOSOCIAL DEVICE. *Theoretical & Applied Science*, (8), 220-225.
10. Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.
11. НАРБАШЕВА, М. А. (2017). Из истории детских народных игр Узбекистана. *Nazli TYFEKÇI, Ph. D. Ali KORKUT, Ph. D. Hasan KARACAN, Ph. D.*, 273.
12. Norbosheva, M.A. (2022). FOLK GAMES SERVES AS A PSYCHOSOCIAL DEVICE. *World Bulletin of Social Sciences (WBSS)*, Vol. 8, March, 104-109.
12. Нарбашева, М. А.(2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ОИЛА ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИНИ ЎРГАНИШ. Педагогика ва психологияда инновациялар. (6), 94-101
13. Нарбашева, М. А.(2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. (maxsus son) 165-169.
14. Ashurova, S. (2023). SOG‘LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314>
15. Ashurova Sh.F. A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION . *Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)*. 2022. <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)
16. Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.
17. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>

18. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
19. Жабборов Хазрат Хусенович. Миллий тарбиянинг қадимий ва замонавий ижтимоий-психологик омиллари. **Таълим ва инновацион тадқиқотлар образание и инновационные. Халқаро илмий-методик журнал. ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH** № 9, 2022 сентябр. Б. 270-283
20. Хазрат Хусенович Джабборов Социально-психологические индикаторы национального воспитания. **Science and education scientific journal** ISSN 2181-0842. Volume 3, Issue 3. March 2022. Page 1082-1089. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2883>
21. Kh.Kh. Jabborov. The study of the problem of national education by eastern thinkers. **International Journal of Pedagogics** (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
22. Botirova Dilafruz Bozorovna International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2February, 2022 –В 1838-1843. <https://www.scopus.com/sourceid/21101016918/>
23. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>
24. Elamanovich, E. O. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS. Science and Innovation, 1(4), 201-205.
25. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
26. Mardonov, E. (2023). O‘QUVCHILARDA TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI RIVOJLANISH JARAYONI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8472>
27. Baxtiyorov, R., Botirova, D., & Jo‘rayeva, M. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDA MULOQOTCHANLIK ORQALI AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8471>
28. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI. Журнал

- Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8470>
- 29.Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
30. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 20, 49-51.
31. Eshmuradov, O., & Ismoilova, G. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA'RBIYASIGA TA'SIRI ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *Science and innovation*, 1(B4), 201-205.
32. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 1318-1323.
33. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *Scientific progress*, 1 (6), 143-149.
34. O. Eshmuradov, & G. Ismoilova (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA'RBIYASIGA TA'SIRI ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *Science and innovation*, 1 (B4), 201-205. doi: 10.5281/zenodo.6902544
- 34.Kamolova, Shirin Usarovna, & Axmedova, Fotima Xurramovna (2022). SOG'LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 630-636.
- 35.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O'SMIRLAR KELIB CHIQISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
- 36.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 37.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
- 38.Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari*, 1(1), 481-483.
- 39.Norbekova, B. (2021). Socio-Psychological Characteristics of National Character. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed*, 7(1).

10. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109.
41. Норбекова, Б. (2021). Духовно-нравственный образ семьи. *Общество и инновации*, 2(2/S), 123-128.
42. NORBEKOVA, B. (2021). Жамят ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations.
43. Норбекова, Б. (2020). МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*.
44. Yo‘ldoshyev, S., & Jo‘lmurodov, O. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIK QADRIYAT SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 3-7. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8481>
45. Yo‘ldoshyev, S., & Fayzullayeva, M. (2023). STRESSNI KELIB CHIQUISH SABABLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 8-14. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8482>
46. Yo‘ldoshyev, S., & Otaqulova, S. . (2023). SHAXSDA QOBILYATLAR RIVOJLANISHINING INDIVIDUAL PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8473>
47. Yo‘ldoshyev, S., & Bosimova, M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8393>
48. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). O‘QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8389>
49. Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
50. Мажидов Жасур, & Хамдамов Хайдарбек. (2022). ШАХСГА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 138–148. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255>
51. Мажидов, Ж. Б. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ШАХСНИ ЎЗИНИ-ЎЗИ ИДРОК ЕТИШИ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК МУАММОЛАРИ. *Ученый XXI века*, (5-2 (86)), 19-24.
52. ХАМДАМОВ Хайдарбек. (2023). ПСИХОЛОГИЯДА РЕЗИЛЕНТЛИК ФЕНОМЕНИ: АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАР ВА ИСТИҚБОЛДАГИ МАСАЛАЛАР. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 3(3), 16–21. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7743535>